

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70530601 – Mexanika va matematik modellashtirish
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70530601 – Mexanika va matematik modellashtirish

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ESHMATOV FARXOD XASANOVICH

Yangi O'zbekiston universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: OLEKSANDR MENSHYKOV

University of Aberdeen (Buyuk Britaniya)

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260061
Xulosa raqami	1167
Xulosa sanasi	10.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy. Litsenziya: № 533090, 19.07.2017. Guvohnoma: MAS № 0000374, 23.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Mexanika va matematik modellash
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70530601
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 533090, 19.07.2017
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70530601 – Mexanika va matematik modellash
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70530601 – Mechanics and Mathematical Modeling
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70530601 – Механика и математическое моделирование
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Mexanik, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	10 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

O'rganilgan hujjatlar hamda taqdim etilgan ma'lumotlar asosida magistratura ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi kompleks baholandi. Tahlil natijalari 70530601 – “Mexanika va matematik modellashtirish” magistratura ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv tizimi hamda sifatni ta'minlash mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi. Xususan, istiqbolli rivojlanish rejasi, universitet strategik maqsadlari bilan uyg'unlashgan boshqaruv yondashuvlari, xavflarni aniqlash va baholash tizimi hamda ichki monitoring mexanizmlarining shakllantirilgani ta'lim dasturini izchil rivojlantirish uchun zarur institutsional asos yaratilganini tasdiqladi. Rejalashtirish jarayonlarining xavflar tahlili bilan uzviy bog'langan holda amalga oshirilishi boshqaruv qarorlarining asoslanganligini ta'minlash, ehtimoliy xatarlarning oldini olish va magistratura ta'lim dasturining barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari akkreditatsiya mezonlarida belgilangan talablarga mos ravishda yo'lga qo'yilgani qayd etildi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

Taqdim etilgan o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv rejalari, fan dasturlari hamda ta'lim dasturining mazmuni kompleks tahlil qilindi. Baholash natijalari magistratura ta'lim dasturining maqsadi, mazmuni, kutilayotgan o'quv natijalari, shakllantiriladigan kompetensiyalar tizimi, fanlar tarkibi va kredit hajmi amaldagi me'yoriy talablar asosida ishlab chiqilganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim mazmuni bitiruvchilarga “Mexanik, pedagog-tadqiqotchi” kvalifikatsiyasini egallash uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini izchil shakllantirishga yo'naltirilgani e'tirof etildi. Nazariy mexanika fanlari bilan hisoblash

va matematik modellashtirish modullarining o'zaro uyg'unligi murakkab muhandislik masalalarini ilmiy asosda tahlil qilish, modellashtirish va yechimlar ishlab chiqish bo'yicha magistrnlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturi mazmuni akkreditatsiya mezonlarida belgilangan sifat talablariga mos ravishda shakllantirilgani o'z aksini topdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

O'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim natijalarini baholash tizimiga oid hujjatlar hamda amaldagi amaliyot kompleks ravishda tahlil qilindi. Baholash natijalari o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda universitetning ichki me'yoriy hujjatlari asosida to'liq shakllantirilganini ko'rsatdi. Shuningdek, baholash mezonlarining oldindan belgilanishi va shaffof tarzda qo'llanilishi, akademik halollik tamoyillarini ta'minlashga qaratilgan mexanizmlarning izchil joriy etilgani hamda baholash jarayonining xolisligi va ishonchliligini ta'minlovchi tartiblar amalda qo'llanayotgani e'tirof etildi. Modellashtirish loyihalarini himoya qilish amaliyotining o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi magistrnlarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy yechimlar bilan uyg'unlashtirish hamda mustaqil ilmiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etish va bilimlarni baholash tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob berishi aniqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

Talabalar faoliyatini tashkil etish yuzasidan taqdim etilgan hujjatlar hamda amaliy mexanizmlar atroflicha o'rganildi. Tahlil natijalari magistrantlarni qabul qilish jarayonlari, talabalar kontingenti harakatini boshqarish, ularning huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy-akademik xizmatlarni tashkil etish tizimi amaldagi normativ hujjatlar va universitetning ichki tartib-qoidalariga muvofiq yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi. Shuningdek, magistrantlarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlash, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish va akademik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlarning izchil amal qilayotgani baholandi. Magistrantlarning ilmiy loyihalar va ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etishini rag'batlantirish ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini mustahkamlash, innovatsion fikrlashni rivojlantirish hamda ta'lim natijalari samaradorligini

oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarga to'liq mos kelishi xulosa qilindi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

Inson resurslari yo'nalishi doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, ularni tanlash, rivojlantirish va kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimi kompleks baholandi. Tahlil natijalari professor-o'qituvchilarni tanlash, malakasini oshirish va rag'batlantirish mexanizmlari belgilangan talablar asosida samarali yo'lga qo'yilganini, mavjud kadrlar salohiyati magistratura ta'lim dasturidagi fanlarni sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilganini ko'rsatdi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarning ilmiy va pedagogik kompetensiyalarini muntazam rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilayotgani hamda ularning ta'lim va ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimi amaliyotda samarali qo'llanayotgani e'tirof etildi. Xalqaro ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilayotgan tadqiqotchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish magistrantlarning zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyati sifatini oshirish va xalqaro tajribalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Baholash yakunlariga ko'ra, inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mosligi bilan tavsiflandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda mavjud infratuzilma holati atroflicha o'rganildi. Tahlil natijalari magistratura ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, o'quv-laboratoriya infratuzilmasi, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, raqamli ta'lim muhiti hamda inklyuziv ta'limni ta'minlashga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar yaratilganini ko'rsatdi. Shuningdek, ta'lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish, magistrantlarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash va o'quv-resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada ta'minlangani baholandi. Hisoblash resurslari hamda maxsus dasturiy paketlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi magistrantlarning matematik modellashtirish, hisoblash tajribalarini o'tkazish va murakkab ilmiy masalalarni yechish bo'yicha amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Baholash yakunlariga ko'ra, moddiy-texnik ta'minot tizimi

akkreditatsiya mezonlarida nazarda tutilgan talablarni to'liq qanoatlantirishi xulosasiga kelindi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Xalqaro hamkorlik va akademik almashinuv imkoniyatlari to'liq ishga solinmagan.
- ✓ Ayrim fanlar bo'yicha eng so'nggi yillarda nashr etilgan o'quv adabiyotlari ulushini oshirish talab etiladi.
- ✓ Ilmiy-tadqiqot natijalarini xalqaro nashrlarda e'lon qilishni faollashtirish zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Xalqaro hamkorlik, qo'shma dasturlar va akademik almashinuv imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
- ✓ O'quv adabiyotlari va elektron resurslar fondini muntazam yangilab borish.
- ✓ Professor-o'qituvchilar va talabalarning xalqaro ilmiy nashrlardagi ishtirokini rag'batlantirish.
- ✓ Amaliyotchi mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb etishni davom ettirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida 70530601 – “Mexanika va matematik modellash” magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'rganish natijalari magistratura ta'lim dasturini boshqarish va ichki sifatni ta'minlash tizimi samarali shakllantirilgani, dastur davlat ta'lim standarti, Milliy malakalar ramkasi hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni shaffof baholash mexanizmlari va akademik halollik tamoyillari asosida tashkil etilgani, magistrantlarni qabul qilish hamda qo'llab-quvvatlash tartiblari izchil yo'lga qo'yilgani, professor-o'qituvchilar salohiyati, o'quv-laboratoriya bazasi, axborot-resurs ta'minoti va raqamli infratuzilmaning ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli darajada ta'minlangani ko'rsatdi. Baholash yakunlariga ko'ra, 6 ta yo'nalish bo'yicha baholangan barcha 27 ta mezon

muvofoiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturining amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hamda uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiluvchi tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi qayd qilindi. Umuman olganda, magistratura ta'lim dasturining akkreditatsiya mezonlarida belgilangan barcha talablarga mosligi asoslandi va u muvofoiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	20.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	5-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

